



YANGI O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI  
YARATISHDA HARBIY TA‘LIM MUASSASALARIDA INNAVATSION  
YONDASHUVLAR.

Xusanov Davronjon Ma’rufjonovich

*O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik  
litseyi informatika fani bosh o‘qituvchisi*

*“Bugungi O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”*

**Sh.M. Mirziyoyev.**

**Annotatsiya:** *Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yangicha fikrlaydigan, Vatanning yorug‘ kelajagi uchun xizmat qila oladigan yoshlarni tarbiyalash orqali erishamiz. Bu borada “Temurbeklar maktabi” Harbiy Akademik litseyida olib borilayotgan innovasion yondashuvlar yoritilgan.*

**Аннотация:** *Мы достигнем фундамента Третьего Ренессанса, воспитаем молодых людей, которые мыслят по-новому и могут служить светлому будущему своей страны. В связи с этим выделены новаторские подходы, осуществляемые в Военно-академическом лицее «Школа Темурбеков».*

**Annotation:** *We will reach the foundation of the Third Renaissance by educating young people who think in a new way and can serve the bright future of their country. In this regard, the innovative approaches implemented in the Military Academic Lyceum "School of Temurbek" are highlighted.*

**Tayanch so‘zlar:** *Uchinchi Renessans, intellektual salohiyat, vatanparvarlik, harbiy burch, innovatsion ta‘lim texnologiyalari.*

Ko‘hna moziy guvohki, dunyoni doimo g‘oyalar boshqargan. G‘oyalar esa mudom bilim, tafakkur va aql kuchiga suyangan. Bugungi rivojlanish shiddati tez, ilm ufqlari kengayib borayotgan zamonda, qolaversa, axborot vositalari taraqqiy etgan davrda g‘oyalar uchun kurash birmuncha murakkabliklarni talab qilishi tayin. Ammo insoniyat baribir ezgu g‘oyaga muxtojlik sezib yashaydi. Shu ma’noda bugun Yangi O‘zbekiston zarvaraqlariga bitilayotgan bir jumla “Uchinchi Renessans” g‘oyasida ana shunday bir ulug‘vorlikni, ezgulikni buyuk bir kuchni anglash mumkin. Bugun biz ana shunday bir qutlug‘ davrda, dunyoga “Yangi O‘zbekiston” nomi bilan tanilayotgan muqaddas zaminga “Uchinchi Renessans” poydevori quyilayotgan zamonda yashayapmiz.

Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uygonish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki, “Bugungi O‘zbekiston - kechagi O‘zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”, - dedi davlat rahbari.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi harbiy sohada ham olib borilayotgan islohotlar yurtimizda barqarorlikni yanada chuqurroq ta‘minlashga qaratilgan barcha ta‘limiy va tarbiyaviy tadbirlar yetuk insonni shakllantirishga yo‘naltirilgandir. Bu shiddatli davrda mamlakatimizda o‘z faoliyatini yuritayotgan “Temurbeklar maktablari”da olib borilayotgan



ta'lim tarbiya ishlari yangi innovatsion g'oyalar bilan mujassamlashtirilgan. "Temurbeklar maktabi" tom ma'noda yurtimizning ertangi mard va jasur o'g'lonlarini tarbiyalaydigan maskanga aylandi. Maktabda bir necha imtixonlardan saralanib, sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tgan o'quvchilar qabul qilingan. Ularning puxta bilim olishlari va jismoniy chiniqishlari uchun Mudofaa vazirligi tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Maktabda ta'lim jarayoni 2 ta o'zbek va rus tillarida malakali mutaxassislar tomonidan olib boriladi. O'quv xonalari zamonaviy fan texnika jihozlari bilan jihozlangan. Turli xildagi badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan jihozlangan "Axborot- resurs markazi" o'quvchilar xizmatida.

Vatanimiz qudratini yanada mustahkamlashdek buyuk vazifani bajarishda innovatsion va kreativ fikrlaydigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirgan mutaxassislarga ehtiyoj katta. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek O'zbekistonning ertangi kuniga ishonchni mustahkamlash, ajdodlarga munosib bo'lishi uchun islohotlarni ilmdan boshlash kerak. Chunki ilmsiz xech bir sohada natija bo'lmaydi.

"Temurbeklar maktabi" umumta'lim maktablaridan farq qilib, bu yerda o'quvchilar tinimsiz o'z ustida izlanadi, ularning fanlarni o'zlashtirishi doimiy nazorat qilib boriladi. Bu maktablar dunyodagi eng zamonaviy uslublar asosida tashkil etilgan bilim maskani, intellekt – ma'naviy - ma'rifiy muhit, dars berish metodikasi bilan boshqa maktablarga namuna bo'lishi kerak.

Bu yerda tahsil olayotgan bolalar O'zbekistonning umidi, kelajagidir. Ularni har tomonlama barkamol, kelajakda harbiy xizmatga ruhan va jismonan matonatli xodim sifatida tarbiyalash maqsadida akademik litsey o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

-xalqaro miqyosda o'tkaziladigan fan olimpiadalari, sport musoboqalarining istiqbolli yosh harbiylar zahirasini yaratish;

- tinglovchilarni nazariy bilimlar bilan qurollantirish;

-elektron axborot ta'lim resurslarini takomillashtirish;

-o'qitishning yanada yangi texnologik sharoitlarini muvofiqlashtirish;

Bugun ilm olishning uslublari o'zgargan, hozir an'anaviy ta'limdagi, auditoriyalarda uzundan-uzoq ma'ruzalarni tinglab emas, shiddatkor texnologiyalarda o'zlashtirish mumkin. Ha, zamohaviy ta'lim bugungi kunning asosiy vazifalaridan biriga aylanishi kerak. Biz Renessans sahifalarini faqat an'anaviy nazariyalar bilan emas, bilaks, kompyuterlarda IT va DT texnologiyalarida yozishimiz kerak. Shundagina bizdan yana dunyoni lol qoldiradigan yosh Beruniylar, Ibn Sinolar, Xorazmiylar kabi buyuk daholar, Buxoriy, Termiziy kabi kabi buyuk muhaddislar yetishib chiqadi.

"Mamlakatimizda hech bir bola e'tibordan chetda qolmaydi. Hammasining rivojlanishi uchun sharoit yaratayapmiz. Faqat qaysi yosh o'zini qiynab, vaqtini bekor o'tkazmay ko'proq bilim olsa, kelajakda muvaffaqiyatga erishadi, hamma buyuklik niyatdan keladi, mehnatdan keladi,"

SH.M. Mirziyoev.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Rennesans davriga poydevor yaratilmoqda” - Mirziyoev Sh.M., “Yangi O‘zbekiston” 31.08.2021.
2. “Harbiy xizmatchilarning kasbiy komponentligini tarbiyalash mexanizmlarini ilmiy-pedagogik shakllantirish” – Alimardonov Z.Sh., “Xalq so‘zi”, 03.07.2021.
3. <http://www.ziyo.net>